

## XUSUNBUZARLAR PAYDO BO'LISHI SABABLARI

*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi*  
**AMIROVA LOBAR QODIRJON QIZI**

**Annotatsiya :** Ushbu maqola xusunbuzarlar paydo bo'lishi sabablari , klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash , zamonaviy texnikalardan foydalanishga mo'ljallangan.

**Аннотация:** Данная статья призвана описать причины, клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

**Abstract:** This article is intended to describe the causes of the appearance of erectile dysfunction, its clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Burundagi toshma yurak-qon tomir tizimidagi buzilishlardan ogohlantiradi. Agar toshma qanshar sohasida paydo bo'lsa, jigarning qonni yomon tozalayotganini anglatadi.

Ko'z atrofidagi toshma buyrak yaxshi ishlamayotganini bildiradi, lab atrofidagi husnbuzar esa oshqozon buzilishi va ich qotishiga ishora qiladi. Yana lunjdagi husnbuzar ham oshqozon-ichak yo'lidagi muammolardan ogohlashtirishi mumkin. Shuningdek, o'ng lunj nerv tizimiga javobgar. Shu bois yuzning o'ng tomonidagi toshma asabiylashmaslikka chaqiradi. Chap lunjdagi toshma esa jigar bilan bog'liq muammolardan guvohlik berishi mumkin.

Husnbuzarlar peshananing soch o'sadigan chizig'iga yaqin joyda chiqsa, bu o't qopi zararlanganini bildiradi. Qosh tepasida paydo bo'lgan husnbuzar oshqozon faoliyati buzilgani va o'z funksiyalarini to'liq bajara olmayotganidan xabar beradi. Demak, siz juda ko'p shirinlik, go'sht va hayvon yog'larini iste'mol qilasiz. Me'yordan ortiq limonad va meva sharbatlari tufayli ham xuddi shunday natija kuzatilishi mumkin.

Peshanada toshmalar juda ko'p bo'lsa, bu qandaydir dorini ortiqcha qabul qilayotganingizdan dalolat. Bu bosh og'rig'ini qoldirish uchun ichadigan doringiz, gormonal vositalar yoki vitaminli preparatlar ham bo'lishi mumkin. Organizmingiz ortiqcha yog'larni o'zlashtirishga qurbi etmaganidan endi o'zlari tashqariga chiqa boshlaydi.

### **Ko'zlar ostida**

Yonoq suyagi ostidan husnbuzar chiqsa, bu buyrak va buyrak osti (*eng muhim ichki sekresiya bezlari*)da nosog'lomlik bor, degani. Bu kam uxlashdan, qattiq charchoq va surunkali stress holatida yurishdan kelib chiqadi. Parhez tutuvchilarda ham oziqlantiruvchi moddalar etishmasligi natijasida xuddi shu holat yuzaga kelishi mumkin.

### **Qansharda**

Bu joyda chiqadigan husnbuzarlar jigarning yaxshi ishlayotgani va qonni yaxshi tozalamayotganidan dalolat. Balki oqsilli mahsulotlar: go`sht, sut, pishloq, yogurt va tvorogni ko`p iste`mol qilarsiz? Yoki qovurilgan va dudlangan eguliklar jonu dilingizdir? Shuningdek, hissiyotlariga izn bermaydigan va buning oqibatida doimiy tushkunlikda yuradiganlar qoshlari orasida husnbuzar mo`ralab qoladi.

### **Burun uchi va yonlarida**

Yurak-qon tomir tizimi faoliyati nosozligi tufayli burun uchi va yonlarida husnbuzar chiqishi mumkin. Chunki bunday vaziyatda yuz terisi qon aylanishi yaxshi emasligi va ozuqa moddalarining etishmasligidan aziyat chekadi. Balki taomnomangizda oqsil va V vitaminiga urg`u bermayotgandirsiz. Xuddi shu holat kamharakat, doim tashvishda yuradigan va qo`rzoq insonlarda ham bo`lishi mumkin.

### **Ikki yuzda chiqsa...**

Yuz, ko`krak sohasi va ikki kurak orasida husnbuzar chiqishi o`pkaning ahvoli yaxshi emasligini bildiradi. Xitoy tibbiyotchilarining ta`kidlashicha, unda egiluvchan va vazmin quvvat yo`l topolmasdan yig`ilib qolar ekan.

Xo`sh, endi nimani noto`g`ri qilayotganingizni aniqlaymiz. Shirinliklar, sut, sabzavot va mevalarni juda ko`p tanovul qilasizmi, deyman-da? Sirasini aytganda, sizga toza havo, jismoniy faollik, quvonch va ichki olov etishmaydi. O`zingizni yolg`iz his qiluvchi bo`lsangiz ham husnbuzarlar sizni aslo tark etmaydi.

### **Lab atrofi va elkada**

Muammo ovqat hazm qilish tizimingizda: qizilo`ngachdan yo`g`on ichakkacha. Buning natijasida sizni ich qotishi, qorin dam bo`lishi, ichak koliklari bezovta qilishi mumkin. Ehtimol siz tushkun, azobli kechinmalarni boshdan kechirib, shunday kayfiyatda yurgandirsiz. Shuning uchun ham ichaklarda ovqat mudom to`xtab, mudom tez harakat qiladi.

### **Iyak va pastki jag` chizig`ida**

Sizda gormonal muvozanab buzilgan, ya`ni androgen (erkaklik jinsiy gormonlari) ko`payib ketgan bo`lishi mumkin.

Me`yordan ortiq achchiq choy, qora qahva ichuvchilarda husnbuzar shu iyak va pastki jag` chizig`ida chiqadi. Bu sohada chiqqan husnbuzarlar uyqusizlik, asabiylik va xafagarchilik nishonasi ham bo`lishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://bilim.tma.uz/articles/318>
2. <https://ghealth121.com/treatments/brain-hemorrhage/?lang=uz>